

## DORIVOR O'SIMLIKLAR VA ULARNING INSON SALOMATLIGIDAGI AHAMIYATI.

*FarDU o'qituvchisi M.A.Abdurahimova*

*FarDU 1 bosqich talabasi U.SH.Turdimuhammadova*

**Аннотация:** *Dorivor o'simliklar nafaqat kasalliklarni davolash, balki ularning oldini olishda ham muhim o'rin tutadi. Har bir inson bu tabiiy ne'matlarning qadriga yetib, ulardan to'g'ri foydalanishi kerak.*

**Аннотация:** *Лекарственные растения играют важную роль не только в лечении болезней, но и в их профилактике. Каждый должен оценить эти природные дары и правильно их использовать.*

**Annotation:** *Medicinal plants play an important role not only in the treatment of diseases, but also in their prevention. Everyone should appreciate these natural gifts and use them properly.*

Dorivor o'simliklar azal-azaldan inson salomatligini saqlash va turli kasalliklarni davolash uchun ishlatib kelingan. ular tabiatning insonlarga bergan eng bebaho ne'mati hisoblanadi. Har bir o'simlik o'ziga xos shifobaxsh xususiyatlarga ega bo'lib, ular organizmga turli xil ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimiz hududi juda katta bo'lib, turli iqlimli mintaqalarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston kontrast landshaftli o'lkadir. G'arbda unumsiz, suvsiz tuproqli vaqoyali Ustyurt platosi joylashgan bo'lsa, bepoyon Turon pasttekisligi janubda Qoraqum, markazida Qizilqum sahrolaridan iborat. Respublikamiz hududi sharqda va shimolda Tyan-Shan tog' tizimi bilan chegaralanadi. Tabiiy landshaftlarning turli-tumanligi hamda tog'larda vertikal zonalarning mavjudligi keng spektrdagi ekotizimlarni shakllanishiga sabab bo'lgan. O'rmon bilan qoplangan maydon 10,1 %ni tashkil etadi. O'zbekiston hududida 4500 turga yaqin o'simliklar va 2000 turdan ortiq zamburug'lar tarqalgan. 1200 turga yaqin o'simliklar dorivorlik xususiyatiga ega. 400 turga yaqin o'simliklar endemik, noyob va relik o'simliklar hisoblanadi. Tabiatda mavjud bo'lgan dorivor o'simliklarning turlari ko'p va xilma-xil. Masalan, romashka, nastarin, arslonquyruq, malina, asalo't va boshqa ko'plab o'simliklar shifobaxsh xususiyatlari bilan mashhur. Ular tarkibida vitaminlar, mineral moddalar, antioksidantlar, va boshqa foydali biologik moddalar mavjud. Bu moddalar organizmning immunitetini mustahkamlaydi, kasalliklarga qarshilikni oshiradi va turli viruslarga qarshi himoya qiladi. Hozirgi zamonda, ko'plab kimyoviy preparatlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, dorivor o'simliklarga bo'lgan talab kamaygan emas. Tabiiy dorilar sintetik vositalarga qaraganda kamroq nojo'ya ta'sirlarga ega. Shu bois, ular profilaktika va davolashda keng qo'llanilmoqda. **Arslonquyruq — Leonurus Besh bo'lakli arslonquyruq** - Leonurus quinquelobatus Gilib. (Leonurus villosus Desf.), oddiy arslonquyruq — Leonurus cardiaca L. va turkiston arslonquyruq — Leonurus turkestanicus v. Krecz. et Kupr.; yasnotkadoshlar — Lamiaceae (labguldoshlar — Labiate) oilasiga kiradi. Ko'p yillik, bo'yi 50—150 (ba'zan 200) sm ga yetadigan o't o'simlik. Poyasi bir nechta, to'rt qirrali, tik o'suvchi, shoxlangan. Bargi oddiy, panjasimon besh bo'lakli, yuqoridagilari uch bo'lakli bo'lib, poyada bandi

bilan qarama-qarshi joylashgan. Gullari 5 bo'lakli, ikki labli, poyaning yuqori qismidagi barglar qo'ltig'ida halqa shaklida o'rnashib, boshqosimon to'pgul hosil qiladi.

Mevasi uch qirrali, to'q jigarrang 4 ta yong'oqchadan tashkil topgan. Iyun oyidan sentabrgacha gullaydi va mevasi yetiladi. Arslonquyruq o'simligining bu uch turi bir-biriga juda o'xshash bo'lib, barglarining tuzilishi bilan farq qiladi. Besh bo'lakli arslonquyruq o'simligining bargi sertuk.

**Geografik tarqalishi.** Belarus, Ukraina, Rossiyaning Yevropa qismida (shimoldan tashqari), Kavkaz va Garbiy Sibirda aholi yashaydigan joylarga yaqin yerlarda, bo'sh



yotgan va tashlandiq joylarda, ekinzorlarda o'sadi. Mahsulotni asosan Volga bo'yidagi joylarda, Boshqirdistonda va Voronej viloyatida tayyorlanadi. Turkiston arslonquyruq'i asosan O'rta Osiyoda (O'zbekistonning Toshkent, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarini) tog'li tumanlaridagi tog'larning o'rta qismidagi toshli va shag'alli-tuproqli qiyalarida o'sadi. U O'zbekistonda tayyorlanadi. Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot 30-40 sm uzunlikda qirqilgan o'simlikning yer ustki qismidan (poya, barg va gullaridan) iborat. Poyasi to'rt qirrali, ichi kovak, qizil binafsha rangga bo'yalgan. Bargi to'q yashil, tukli (oddiy va Turkiston arslonquyruqlarining bargi esa tuksiz), poyaning pastki qismidagilari tuxumsimon shaklli va yuraksimon asosli, o'rta qismidagilari panjasimon 5 bo'lakka qirqilgan, yuqori qismidagilarni esa cho'ziq ellipssimon yoki lansetsimon, uch bo'lakli yoki uch bo'lakka qirqilgan bo'lib, poyada bandi bilan qarama-qarshi joylashgan. Gullari poyaning yuqori qismidagi barglari qo'ltig'ida halqa shaklida o'rnashib, boshqosimon to'pgul hosil qiladi. Gulkosachasi 5 tishli, naychasimon, qo'ng'iroqsimon, gultojisi ikki labli, pushti yoki pushti- binafsha rangli, otaligi 4 ta bo'lib, shundan yuqoridagi 2 tasi kalta, onalik tuguni to'rt bo'lakli, yuqoriga joylashgan.

Arslonquyruq o'simligining kimyoviy tarkibi hali yetarli o'rganilgan emas. O'simlik tarkibida flavonoidlar, 2,01—9% gacha oshlovchi moddalar, 0,035—0,4% gacha alkaloidlar (o'simlik gullay boshlaganida), 0,05% efir moyi, n-qumar kislota, vitamin S, iridoidlar, saponinlar, achchiq, qand va boshqa moddalar borligi aniqlangan. **Mahsulotning** flavonoidlar yig'indisidan rutin, kversitrin, giperozid, kversetinni 7-glikozidi, kversetin va kvinkvelozid, alkaloidlar yig'indisidan leonurinin alkaloidi (mevasidan) va 0,4% gacha staxidrin ajratib olingan.

**Ishlatilishi.** Arslonquyruqning dorivor preparatlari tinchlantiruvchi vosita sifatida (valeriana preparatlaridek) gipertoniya, nerv qo'zgalishi va ba'zi yurak kasalliklari (yurak nevrozi, kardioskleroz)ni davolash uchun ishlatiladi.

**Dorivor preparatlari.** Damlama, nastoyka, suyuq ekstrakt. Mahsulot tinchlantiruvchi choy-yig'malar tarkibiga kiradi.

### **XULOSA**

Dorivor o'simliklar nafaqat kasalliklarni davolash, balki ularning oldini olishda ham muhim o'rin tutadi. Har bir inson bu tabiiy ne'matlarning qadriga yetib, ulardan to'g'ri foydalanishi kerak. Bugungi kunda dorivor o'simliklarning inson organizmiga ijobiy ta'sirini yanada chuqurroq o'rganish, ularni to'g'ri qo'llash orqali insonlarning salomatligini yanada mustahkamlash mumkin.

Dorivor o'simliklar qadimdan inson hayotida muhim o'rin tutib kelgan. Ulardan tabobatda, oziq-ovqat sanoatida va kosmetika sohasida keng foydalaniladi. Ushbu maqolada dorivor o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlari, ularning inson organizmida tutgan o'rni va foydasi ilmiy asoslangan holda yoritib beriladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'ljaboyeva N. Xalq Tabobati xazinasidan javohirlar. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2009. 1135 bet.
2. Murdaxayev Y.M. —O'zbekistonda vatan topgan dorivor o'simliklar|| Toshkent, 1990.
3. To'xtayev B.YE.|| O'zbekistonning sho'rlangan yerlarida introduksiya qilingan dorivor o'simliklar ||. b.f.d. uchun doktorlik dissertatsiyasi, 2009y. Qo'shimcha adabiyotlar.
5. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi Toshkent, —Fan||, 2009.
6. Norqulov U, Nizomova M. Va boshqalar Dorivor o'simliklarni turlari va ularning maxalliy, ilmiy nomlari.
- 7.M.A.Abdurahimova Farmakopiya dorivor o'simliklari 2023yil